Erasmus+ dasturi Milliy ta’sir tadqiqoti (NIS) – O‘zbekiston, 2021–2026

Ishtirokchi universitetlar uchun yo‘riqnoma: so‘rovnomalar, fokus-guruhlar va keys-stadilar

NIS 2021–2026-yillardagi Erasmus+ loyihalarining ta’sirini xodimlar, talabalar va bitiruvchilar orasida o‘rganmoqda. Har bir universitetdan uchta onlayn so‘rovnoma havolasini barcha mos keluvchi shaxslarga yuborishni so‘raymiz.

1. Qaysi so‘rovnoma kimga yuboriladi

Xodimlar uchun so‘rovnoma	[havola]	CBHE, ICM yoki Jean Monnet tadbirlarida ishtirok etgan xodimlar: loyiha koordinatorlari va jamoa a’zolari, mobillikda qatnashgan yoki mobillik ishtirokchilarini qabul qilgan xodimlar, shuningdek CBHE ko‘magidagi dasturlar yoki Jean Monnet modullarining o‘qituvchilari/loyiha rahbarlari.
Talabalar uchun so‘rovnoma	[havola]	Hozirda o‘qiyotgan hamda 2026-yilda o‘qishni tamomlagan, Erasmus+ bo‘yicha tajribaga ega talabalar.
Bitiruvchilar uchun so‘rovnoma	[havola]	2021–2025-yillarda o‘qishni tamomlagan, Erasmus+ bo‘yicha tajribaga ega bitiruvchilar.

Talabalar va bitiruvchilar uchun mos Erasmus+ tajribasi: ICM doirasida xorijda almashinuv semestri yoki amaliyot; Erasmus Mundus qo‘shma magistratura dasturi (EMJM); CBHE loyihasi doirasida yaratilgan yoki qayta ishlangan dastur, kurs yoki modul; Yevropa Ittifoqi bo‘yicha Jean Monnet moduli yoki kursi. 2021–2026-yillarda to‘liq yoki qisman amalga oshirilgan barcha tadbirlarni hisobga oling.

2. So‘rovnomalarni qanday tarqatish kerak

1. Bitta mas’ul shaxsni tayinlang (masalan, Xalqaro aloqalar bo‘limidan) va uning ismi hamda elektron pochta manzilini tadqiqot guruhiga yuboring.

2. Mos guruhlarni o‘z ma’lumotlaringiz asosida aniqlang: loyiha jamoalari va xodimlar mobilligi ro‘yxatlari (xodimlar); ICM almashinuv ro‘yxatlari, EMJM talabalari, CBHE ko‘magidagi dasturlar guruhlari va Jean Monnet mashg‘ulotlari tinglovchilari (talabalar va bitiruvchilar). Xodimlar orasidan — CBHE, ICM va Jean Monnet loyihalari rahbarlari va a’zolari. Agar bir xodim ikki yoki undan ortiq loyihada ishtirok etsa, u har bir loyiha bo‘yicha so‘rovnomani (bitta havoladan foydalanib, turli loyihalarni tanlagan holda) to‘ldirishi yoki buning uchun loyiha jamoasidan boshqa a’zoni tayinlashi lozim.

3. Tegishli havolani barcha mos keluvchi shaxslarga ular haqiqatan ham o‘qiydigan kanallar orqali yuboring: universitet elektron pochtasi, Telegram guruhlari, LMS e’lonlari, bitiruvchilar guruhlari.

Iltimos, boshqalar nomidan so‘rovnomani to‘ldirmang; javoblarni yig‘mang va boshqalarga yubormang; javoblarni ko‘rsatishni so‘ramang; qanday javob berish kerakligini aytmang.

3. Fokus-guruh muhokamalari (onlayn)

• Xodimlar uchun fokus-guruhlar: har birida 8 nafar ishtirokchi bo‘lgan 4 ta onlayn fokus-guruh (tasodifiy tanlangan 32 ta universitet). Shuningdek, 2026-yilda yangi tanlangan loyihalar uchun alohida fokus-guruh

o‘tkaziladi. Agar universitetingiz tanlansa, tadqiqot guruhi bitta aniq Erasmus+ loyihasining koordinatori yoki mas’ul shaxsini taklif qilish uchun siz bilan bog‘lanadi. Agar bu shaxs qatnasha olmasa, iltimos, shu loyiha jamoasidan boshqa a’zoni taklif qiling.

• Talabalar va bitiruvchilar uchun fokus-guruhlar: har birida 8 nafar ishtirokchi bo‘lgan 4 ta onlayn fokus-guruh (2 tasi talabalar, 2 tasi bitiruvchilar bilan). Ishtirokchilar so‘rovnoma oxirida qatnashishga rozilik bildirgan respondentlar orasidan tasodifiy tanlanadi. Agar ishtirokchilarni taklif qilishda yordam kerak bo‘lsa, tadqiqot guruhi universitetdagi mas’ul shaxs bilan bog‘lanadi.

4. Keys-stadi uchun universitetlar

So‘rovnomalar va fokus-guruhlardan so‘ng bir nechta universitet keys-stadilarda (joyiga tashrif va loyiha rahbarlari bilan suhbatlarni o‘z ichiga olgan holda) ishtirok etishga taklif qilinadi. Tanlangan universitetlar bilan tafsilotlar yuzasidan alohida bog‘laniladi.

5. Etika, muddatlar va aloqa

- Ishtirok ixtiyoriy. Ishtirok etish yoki etmaslik o‘qish, baholar yoki ishga hech qanday ta’sir qilmaydi.
- Muddatlar: **so‘rovnomalarni to‘ldirishning taxminiy muddati – 2026-yil 10-noyabr.** Fokus-guruhlar 2026-yil 7-15-noyabr kunlari o‘tkaziladi. Joyiga tashrif sanalari tanlangan universitetlar bilan kelishiladi.
- Savollar va aloqa uchun mas’ul shaxslar (Dushanba – Juma kunlari, soat 09:00-18:00):
    - Akhtem Useinov, ilmiy xodim, Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti, a.useinov@wiut.uz, +998909370952. Erasmus+ dasturi Milliy ta’sir tadqiqoti (NIS) rahbari.
    - Khumora Yunuskhodjaeva, loyiha menejeri, O‘zbekistondagi Erasmus+ Milliy ofisi (NEO), neo.khumorayunuskhodjaeva@gmail.com, +998712389918.